



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIY KAMOLOTIDA IJTIMOYIY-MADANIY OMILLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

G‘ulamov Obidjon G‘ayratovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, PhD dotsent

Annotatsiya

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar kamolotiga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish asosida ularda g‘oyaviy immunitetni mustahkamlash asosiy o‘rin egallaydi. Yoshlar ongida milliy g‘oya va mafkuraning asosiy tamoyillari mustahkam o‘rin olmog‘i lozimligi, yoshlar ongi va tafakkuriga ta’sir qilishga intiluvchi yot g‘oyalar ta’siriga kirib qolmasligini ta’minlash bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko‘nikmasini ham shakllantirish masalalariga to‘xtaladi. Milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish va uni asrab-avaylash kabi muhim masalalar ochib berilgan. Shuningdek, yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida yoshlarda g‘oyaviy immunitetni rivojlantirish masalalarining istiqbolli qirralari ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, yangilanayotgan O‘zbekiston, milliy qadriyatlar, huquqiy madaniyat, milliy g‘oya, ma’rifat, yot g‘oyalar, g‘oyaviy immunitet.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ФАКТОРОВ В ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Гуламов Обиджон Гайратович

Ташкентский архитектурно-строительный университет, доцент PhD

Аннотация

В современной глобализационной среде, исходя из изучения факторов, влияющих на взросление молодежи, ключевую роль играет укрепление ее идеологической невосприимчивости. В статье рассматривается необходимость прочного закрепления национальной идеи и основных принципов идеологии в сознании молодежи, обеспечения защиты от влияния иностранных идей, стремящихся повлиять на умы и мышление молодых людей, а также формирования навыков адекватного реагирования на них. Раскрываются важные вопросы, такие как уважение и сохранение национальных ценностей. Также выдвигаются перспективные аспекты развития идеологической невосприимчивости молодежи в условиях обновленного Узбекистана.

Ключевые слова: Молодежь, обновленный Узбекистан, национальные ценности, правовая культура, национальная идея, просвещение, иностранные идеи, идеологическая невосприимчивость.

PROSPECTS OF USING SOCIO-CULTURAL FACTORS IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH IN UZBEKISTAN

G‘ulamov Obidjon G‘ayratovich

Tashkent University of Architecture and Construction, Associate Professor (PhD)

Abstract

In today's globalization environment, based on the study of factors affecting the maturation of young people, strengthening their ideological immunity plays a key role. The article touches upon the need for the national idea and the basic principles of ideology to take a firm place in the minds of young people, ensuring that they are not influenced by foreign ideas that seek to influence the minds and thinking of young people, as well as the formation of the skills to respond appropriately to them. Important issues such as respecting and preserving our national values are revealed. Also, promising aspects of the development of ideological immunity in young people in the conditions of a renewed Uzbekistan are put forward.

Keywords: Youth, renewed Uzbekistan, national values, legal culture, national idea, enlightenment, foreign ideas, ideological immunity.

Uchinchi Renessans asoslari shakllanayotgan O‘zbekiston voqeligida yoshlarning ma’naviy kamolotini ta’minlash strategik ahamiyatga molik vazifa sifatida davlat siyosatidan o‘rin olgani e’tibordir. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida yoshlar qalbi va ongini egallash borasida turli tahdidlarning mavjudligi yoshlar tarbiyasi va ta’limiga asosiy e’tibor qaratish, ularning ma’naviyatini yuksaltirish borasida qator tadbirlar ishlab chiqish lozimligini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan po‘devordir. Bu po‘devor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi” [1].

Demak, jamiyat a’zolari orasida hurmat va e’tiborning davomiyligini hamda doimiyligini ta’minlash uchun ham ma’naviy tarbiya masalalariga asosiy e’tibor qaratmog‘imiz lozim. Ayniqsa, kelajak taraqqiyotimizni ta’minlovchi asosiy kuch bo‘lgan yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlab borish xalqimiz va milliy davlatchiligimizning kelajak asoslarini mustahkamlashda muhimdir.

O‘zining kelajak istiqbolini o‘ylagan har qanday jamiyat yoshlar tarbiyasiga asosiy e’tibor qaratmog‘i tabiiydir. Shu bois, xalq va davlat kelajagi deganda bevosita bugungi yoshlarimiz ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Chunki kelajak taraqqiyotning yo‘nalishi, mohiyati va mazmuni bevosita biz bugun yoshlarimizga qay tarzda ta’lim va tarbiya berishimiz bilan bog‘liq. Bu jarayonda optimal omillardan foydalanish usul va vositalari, targ‘ibot texnologiyalari hamda yoshlarimizning diqqat-e’tiborini ushbu jihatlarga qarata olishda tarbiyaviy metodlar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, global ta’sir texnologiyalari juda faollashgan, bunda ma’naviy-g‘oyaviy tarbiyaning ilg‘or ijobiy qirralari bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan salbiy jihatlari ham o‘zligini namoyon etayotgan bir sharoitda yoshlarimizda milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy tarbiyani rivojlantirish orqali ularda g‘oyaviy immunitetni yuksaltirib borish, Prezidentimiz yuqoridagi iqtibosda ta’kidlaganlaridek, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning mazmunini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, global ta’sirlar niqobida milliy taraqqiyotimizga turfa g‘oyaviy tahdidlarning kirib kelishga urinishlari hamda bunday salbiy jihatlarning ayrimlari ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda kuzatilayotganligi sharoitida jamiyatda yetakchi kuch hisoblangan yoshlarimiz ongu shuurida Vatan va xalq manfaatlarini yo‘lida bunyodkorlikka undovchi xislatlarni rivojlantirib, ularning amaliy faoliyatida ushbu jihatlarning tantanasiga erishish — Uchinchi Renessans asoslari mustahkamlanayotgan bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Vatan uchun qalqon, haqiqiy mardi maydon bo‘lishga, kerak bo‘lganda hatto o‘z jonini qurbon qilishga undaydigan kuch – bu avvalo ma’naviy-ma’rifiy tarbiya emasmi? Bunday tarbiyaning asosida o‘zak masala bo‘lib turadigan tushuncha – bu milliy ruhdur. Milliy ruh insonda ona allasi, uning oq suti bilan birga shakllanadi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi” [2].

Adabiyotlar tahlili

Hozirgi global taraqqiyot sharoitida yoshlar mavqei, jamiyatning ijtimoiy strukturasi tutgan o‘rni, milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda yoshlarning roli, milliy g‘oya targ‘ibida ta’sir obyekti sifatida yoshlar, milliy yuksalish va o‘zlikni anglash, diniy-ma’rifiy omilning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, yoshlar va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv sharoitida tendensioz o‘zgarishlarning yoshlar madaniyatiga ta’siri, O‘zbekistonda yoshlarga oid siyosiy-huquqiy yondashuvlar kabi masalalarni O‘. Abilov, G. Tulenova, Z. Qodirova, S. Mamashokirov, I. Saifnazarov, O. Musayev, A. Ochiliev, E. Yusupov, J. Yaxshilikov kabi olimlar tadqiq etganlar.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma’naviy xavfsizligi va maqsadli faoliyatini tashkil etish, xorijiy tillarni o‘rganishning ahamiyatini siyosatshunos olimlar S. Jo‘raev, N. Jo‘raev, S. Atamuratov, Sh. Paxrutdinov, I. Ergashev, Q. Quronboev, G. Masharipovalar o‘rganganlar. Shuningdek, ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik, globallashuv jarayonlarining yoshlar ongiga ta’siri, pedagog olimlar A. Do‘lanov, M. Quronov, M. Lafasov, Z. Madaliev tomonidan pedagogik tarbiya va ta’lim tizimi islohotlarining yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi roli yoritib berilgan.

Metodologiya

O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ayrim kuchlarning manfaatlariga mos emasligi, ba’zi yirik davlatlarning imperiyachilik kayfiyatlarini oshib borayotgani, bunda asosiy ta’sir obyekti bo‘lgan yoshlar hamda ularning ongu qalbini egallashga yo‘naltirilayotganligi yoshlarda g‘oyaviy immunitetni rivojlantirishni taqozo etadi. Shundagina ongli turmush kechirish, ya’ni aql va idrokning ustuvorligini ta’minlash jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Vatan uchun qalqon, haqiqiy mardi maydon bo‘lishga, kerak bo‘lganda hatto o‘z jonini qurbon qilishga undaydigan kuch – bu avvalo ma’naviy-ma’rifiy tarbiya emasmi? Bunday tarbiyaning asosida o‘zak masala bo‘lib turadigan tushuncha

– bu milliy ruhdir. Milliy ruh insonda ona allasi, uning oq suti bilan birga shakllanadi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi” [3].

Yangi O‘zbekiston jamiyatining asoslari mustahkamlanayotgan bugungi taraqqiyot sharoitida yoshlar faolligini oshirish, bunda birinchi navbatda barkamol avlod ma’naviyatini yuksaltirish asosida ularning axloqiy-intellektual dunyosida pozitiv o‘zgarishlarni ta’minlab borish muhimdir. “Hozirgi zamon sharoitida yoshlar ham davlat, ham jamiyat manfaatlari oqilona qo‘shilib ketgan konstruktiv ijtimoiy faollikni namoyon qilishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish ayniqsa muhimdir” [4].

Shu bois, kreativ yondashuv asoslarini oiladan, bolalar bog‘chasidan, maktab va boshqa o‘quv muassasalari, xizmat va mehnat tashkilotlaridan boshlab samarali yo‘lga qo‘yib, rag‘batlantirib borish maqsadga muvofiqdir. “Ijtimoiy faollikni shakllantirishning an’anaviy institutlariga insonga ketma-ket ta’sir ko‘rsatuvchi oila, yaqin atrofdagilar, maktab, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, ishlab chiqarish kiradi” [5].

Yoshlarda g‘oyaviy immunitetni mustahkamlash, jumladan, oilada ma’naviy omillarning ustuvorligini ta’minlash barkamol avlod tarbiyasiga asosiy e’tibor berilayotgan bugungi kunda muhimdir. “Oila ma’naviyatining yuksakligi buyuk ajdodlarimizga ixlosning mavjudligi hamda milliy madaniyatimiz, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz, marosimlarimiz, udumlarimiz mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish va amal qilish darajasiga bog‘liq” [6].

Aslida, ajdodlarimizdan meros sifatida e’zozlanib kelayotgan qadriyatlarning saralari dastlab oila davrasida singdirib boriladi. Shu bilan bir qatorda, o‘smirlar va yoshlarda mehnat tarbiyasi, bunyodkorlik xislatlarining shakllanishida ham oilaviy tarbiyaning o‘rni ahamiyatlidir.

Bunda “Ishning o‘zini bilguncha ko‘zini bil” yoki “Qalovini topsang qor ham yonadi” kabi maqollardagi ishbilarmonlikka undovchi hikmatlarni topa bilish, unga amal qilish yoshlarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Umuman, ishbilarmonlik va tadbirkorlik asosida ham innovatsion yondashuv va kreativlikning mujassam ekanligi ushbu masalada yoshlarga alohida e’tibor qaratishimizni taqozo etadi.

Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir” [7]. Demak, yoshlarga bilim berish orqali ularda bunyodkorlik va kreativlikni ta’minlab borish kelajakdagi milliy taraqqiyotimizning kafolati sifatida ahamiyatlidir.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish borasida yuqorida ta’kidlangan jihatlarga e’tibor qaratish Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-madaniy taraqqiyot rivojiga hissa qo‘shib, davlatimiz boshlig‘i tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” konsepsiyasida qo‘yilgan vazifalarning amaliy yechimi sifatida ahamiyatlidir. Chunki jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi strategik yo‘nalishda ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar, ma’rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi, bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi masalalari qo‘yilgan ekan, uning yechimini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Tahlil va natijalar

Yuqorida tadqiqot ishimizda ilgari surilgan konseptual jihatlardan kelib chiqqan holda, yoshlar ma’naviy kamolotida ijtimoiy-madaniy omillardan foydalanishning istiqbolli qirralari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

1. Jamiyatda ijtimoiy-madaniy omillar va yoshlar ma’naviyati tushunchalarining konseptual-metodologik asoslarini tadqiq etish yoshlar miqdori umumiy aholi miqdoriga nisbatan yuqori bo‘lgan Yangi O‘zbekiston voqeligida milliy fanimiz rivojini ta’minlashga xizmat qiladi.
2. Yoshlar ma’naviyati tushunchasining kategorial tahlili jamiyatda yoshlar muammolari bilan shug‘ullanuvchi barcha tashkilotlar faoliyatida yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirishda e’tibor berish lozim bo‘lgan jihatlarni belgilab beradi hamda ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarning sifatii mohiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.
3. Ijtimoiy omillarning jamiyat rivojidagi o‘rni, jumladan, ta’lim, tarbiya, oila, mahalla, o‘quv dargohlari, xizmat va mehnat tashkilotlari o‘z a’zolarining ma’naviyatini yuksaltirishga, davr talablari asosida ularning dunyoqarashi, tajriba va ko‘nikmalarining o‘shidan manfaatdor hamda mas’uliyatli ekanligini targ‘ib etish tashkilot rahbarlari, umuman, ziyolilar zimmasiga yangi mas’uliyatlar yuklaydi.
4. Ijtimoiy-madaniy omillar va yoshlar ma’naviyatining o‘zaro aloqadorligini tadqiq etish yoshlar tarbiyasi, shuningdek, ma’naviyati keng qamrovli tushunchalar ekanini ko‘rsatadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalari uning rivojiga xizmat qilishini faktik materiallar asosida tahlil etish

jamiyatdagi barcha tashkilotlar va yo‘nalishlarning maqsadi ma‘naviy yuksalishni ta‘minlash ekanligini tasdiqlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston davlatining barkamol avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgan konseptual siyosiy yo‘nalishlaridan asosiy maqsad — jamiyatning kelajak taraqqiyotini ta‘minlovchi yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, ijtimoiy qatlam sifatida yoshlar muammolari, ularning zimmasidagi mas‘uliyatlar, barkamol avlodni shakllantirish borasidagi strategik vazifalar hamda ularning yechimini ta‘minlashga xizmat qiluvchi tahliliy fikr va munosabatlarning ilgari surilishi milliy fanimiz rivoji yangi bosqichga chiqayotgan bugungi kunda muhim bo‘lib, milliy manfaatlar doirasidagi masaladir. Ayniqsa, Uchinchi Renessans asoslari mustahkamlanayotgan bugungi taraqqiyot sharoitida, uyg‘onishning ushbu bosqichini ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan yoshlar ta‘limi, tarbiyasi, axloqi, umuman, ma‘naviy yuksalishini optimallashtiruvchi ushbu jihatlarning muhimligi har qadamda sezilmoqda. Shunday bir sharoitda yoshlar muammolariga e‘tibor qaratish, ularning kamolotini ta‘minlashga yo‘naltirilgan jihatlarga urg‘u berish muhim ahamiyatga ega. Albatta, yoshlar ma‘naviyati jamiyat ma‘naviyatining ajralmas bo‘lagi sifatida nafaqat Vatanimizning, balki mintaqamizning axloqiy-intellektual salohiyatini belgilovchi omil sifatida ahamiyatlidir. Ma‘naviyat, axloq va intellektual qobiliyat bir-birini taqozo qiluvchi hamda to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida shaxsning, jamoaning va jamiyatning yetuklik darajasini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022. — B. 261.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari. 4-tom. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020. — B. 129.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari. 4-tom. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020. — B. 129.
4. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madayeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. — Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. — B. 174.
5. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madayeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. — Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. — B. 8.
6. Oila ensiklopediyasi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. — B. 130.
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — B. 86.